ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

# YASHIL IQTISOD – BARQAROR RIVOJLANISH VA SOG‘LOM KELAJAK GAROVI

***Qulmamatova Barno Omonovna***
*TDMAU Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi o‘qtuvchisi*
**Aliqulova Madina Ural qizi**
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda dolzarb bo‘lgan yashil iqtisod tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari va afzalliklari yoritilgan. Yashil iqtisod modelining ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, strategiyalar va loyihalar haqida ma’lumotlar berilgan. Maqola global va mahalliy miqyosda yashil iqtisodning ahamiyatini ochib beradi hamda ekologik ongni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.*

**Kalit so‘zla**r:*yashil iqtisod, ekologik barqarorlik, qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, O‘zbekistonda yashil iqtisod, yashil energiya, ekologik texnologiyalar, yashil strategiya*

**Annotation:** *This article explores the concept of the green economy, its essence, core principles, and advantages in the context of modern global environmental challenges. It emphasizes the importance of sustainable development, efficient use of natural resources, and the transition to renewable energy sources. The article also highlights the steps taken by the Republic of Uzbekistan toward the development of a green economy, including national strategies and eco-friendly initiatives. Overall, the article underlines the role of the green economy in ensuring environmental balance, economic growth, and a healthy future for the next generations.*

**Keywords**:*green economy, environmental sustainability, renewable energy, waste reduction, environmental protection, sustainable development, green energy in Uzbekistan, eco-friendly technologies, green strategy, climate change*

## Kirish

Zamonaviy dunyoda insoniyat taraqqiyoti bilan bir qatorda, atrof-muhitga bo‘lgan bosim ham ortib bormoqda. Aholining ko‘payishi, sanoatning jadal rivojlanishi, transport vositalarining ko‘pligi va resurslardan me’yoridan ortiq foydalanish global ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, hozirgi davrda iqtisodiy taraqqiyot faqat foyda olish emas, balki tabiatni asrash bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak. Bunday yondashuvni o‘zida mujassam etgan yangi iqtisodiy model – yashil iqtisod deb ataladi.

Yashil iqtisodiyot“ — bu barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillarini ustuvor o‘ringa qo‘yadigan, shu bilan birga keng qamrovli o‘sish va ijtimoiy adolatni targ‘ib qiladigan iqtisodiy modeldir. Boshqacha aytganda, bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishni, balki tabiiy ekotizimlarning saqlanishi va kelajak avlodlarning farovonligini ta’minlashga qaratilgan yondashuvdir

Mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan olib borayotgan islohotlar doirasida “yashil” iqtisodiyot tamoyillariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va «yashil” iqtisodiyot yili» deb e’lon qilinishi hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Rivojlanish

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

strategiyasi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, “Yashil makon” loyihalarini keng tatbiq qilish va ekohududlarni ko‘paytirish yuzasidan aniq choralar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda barqaror innovatsiya va texnologik modernizatsiya masalalariga alohida e’tibor qaratilayotganligi — “yashil” iqtisodiyotga o‘tishdagi muhim tamoyil hisoblanadi.

Bunda quyosh va shamol energetikasi kabi “yashil” energiya manbalariga sarmoyalarni kengaytirish, sanoatda chiqindilarni kamaytirish, shuningdek ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot prinsiplarini tatbiq etish orqali, nafaqat atrof-muhit me’yorlarini yaxshilash, balki qishloq xo‘jaligi, qayta tiklanuvchi energiya va ekoturizm sohalarida iqtisodiy o‘sish imkoniyatlari yanada kengayishiga erishiladi. O‘zbekiston global miqyosdagi iqlim yaxshilanishi uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga uyg‘un ravishda “yashil” o‘sish strategiyalariga e’tibor qaratmoqda.

So‘nggi yillarda yurtimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar xususida so‘z yuritadigan bo‘lsak, oxirgi 5-yilda quyosh energiyasi quvvatlarini kengaytirish bo‘yicha bir qator loyihalar ishga tushirildi. Energetika vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil oxiriga borib umumiy quyosh energetikasi quvvati 1 000 MVt dan oshgan. Yurtimizda bunday salmoqli natijalar bilan to‘xtalib qolmay, quyosh energiyasidan olinadigan quvvatni yanada yuqori jabhaga olib chiqish rejalashtirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Birlashgan Arab Amirliklariga (BAA) qilgan tashrifi chog‘ida ikki davlat o‘rtasida “Yashil energetika” sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun reja va maqsadlarni ilgari surdi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining energetika sohasida 2030-yilga borib, quyoshdan 7GVt, shamoldan 5GVt energiya olish maqsadi yo‘lida Masdar kompaniyasi ko‘magida qurilishi rejalashtirilgan eng yirik quyosh elektr stansiyalaridan biri 500 MVt quvvatga ega bo‘lib, minglab yangi ish o‘rinlarini yaratishi, shuningdek, yiliga yuzlab xonadonni toza energiya bilan ta’minlashi kutilmoqda. Shamol energetikasi borasidagi rejalar 2 000 MVt gacha quvvat yaratilishini nazarda tutadi. Bunday loyihalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi, balki energiya samaradorligi, smart texnologiyalar va raqamli boshqaruv usullarini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish sezilarli darajada kuchaydi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yilda bunday texnologiyalar 28 ming gektar maydonda qo‘llanilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,9 mln gektarga yetdi. Bu nafaqat suv sarfini kamaytirishga, balki hosildorlikni oshirishga ham xizmat qilmoqda.

O‘tgan davr mobaynida xalqaro hamkorlik doirasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. 2017–2025-yillar oralig‘ida “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish maqsadida 3 milliard AQSH dollaridan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va BMTning tegishli fondlari bilan hamkorlikda O‘zbekistonga malakali mutaxassislarni tayyorlash, ekologik innovatsiyalarni joriy qilish va texnologik transferni jadallashtirishga urg‘u qaratilmoqda. O‘zbekiston Parij iqlim kelishuvi doirasidagi majburiyatlarini yangilab, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha aniq maqsadlarni belgilab oldi.

Endi kelgusida amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan islohotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2022–2030-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish konsepsiyasi kesimida qabul qilingan “yo‘l xaritalari”da belgilangan vazifalar yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suvni tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik standartlarni takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024



asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, elektr energetikasi sohasida 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari hajmini sezilarli darajada oshirish maqsad qilingan bo‘lib, bunda energiya ishlab chiqarishdagi “yashil” quvvatlar ulushini kamida 25–30 foizga yetkazish rejalashtirilgan, quyosh va shamol energetikasidan olinadigan umumiy quvvatni 12 GVt gacha yetkazish ko‘zda tutilmoqda (7 GVt quyosh, 5 GVt shamol). 2040-yilga borib O‘zbekiston toza energiya manbalari bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi davlatlardan biriga aylanishi maqsad qilingan.

Ikkinchidan, suv resurslarini boshqarish va qishloq xo‘jaligida tejamkor texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. 2030-yilga borib tomchilatib sug‘orish va boshqa tejamkor sug‘orish tizimlari joriy etilgan maydonlar hajmi jami sug‘oriladigan yerlarning 50 foizdan ortig‘ini tashkil etishi rejalashtirilgan. Suv sarfini qisqartirish evaziga yiliga 3-4 mlrd m3 suvni tejashga erishish, kimyoviy o‘g‘itlardan foydalanishni bosqichma-bosqich kamaytirish, organik dehqonchilik tamoyillarini joriy etish, sertifikatlangan ekologik mahsulotlar eksportini oshirish bo‘yicha aniq “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilgan.

Uchinchidan, chiqindilarni qayta ishlash va ularni ekologik xavfsiz utilizatsiya qilish masalasi ham kelgusi 10-yillikning asosiy rejalaridan biri hisoblanadi. 2025-yil yakuniga borib maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 40 foizdan oshirish, 2030-yilgacha esa 60 foizga yetkazish belgilangan. Bunga erishish uchun davlat-xususiy sherikchiligi doirasida chiqindilarni saralash va qayta ishlashning yangi klasterlarini ochish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish va chiqindidan energiya ishlab chiqarish (waste-to-energy) loyihalarini amalga oshirishi nazarda tutilgan.

To‘rtinchidan, iqtisodiy o‘sishni dekarbonizatsiya qilish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha O‘zbekiston Parij iqlim kelishuvi doirasidagi majburiyatlaridan kelib chiqib, 2030-yilgacha uglerod ulushini kamida 35 foizga qisqartirishni rejalashtirgan. Shuningdek, keyingi yillarda iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida raqamlashtirish asosida uglerod chiqindilarini doimiy monitoring qilib borish maqsad qilingan.

Beshinchidan, xalqaro hamkorlik va yashil moliyalashtirish masalasi hukumatning alohida e’tibor markazidadir. Konsepsiyaga ko‘ra, 2030-yilgacha “Yashil iqtisodiyot”ning barcha yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun kamida 8–10 mlrd AQSH dollari miqdorida investitsiya talab qilinadi. Xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, BMTning tegishli jamg‘armalari hamda BAA kabi xorijiy davlatlar bilan ko‘plab loyihalar bo‘yicha kelishuvlarga erishilgani investorlar uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda “yashil” obligatsiyalar chiqarish, “yashil” kreditlash va atrof-muhitni muhofaza qilish jamg‘armalarini shakllantirish orqali mahalliy mablag‘larni jalb etish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi rejalar va ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga bo‘lgan qat’iy siyosiy iroda va amaliy chora-tadbirlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Kelgusi yillarda ushbu maqsadlar nafaqat respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror ekologik muvozanatini ta’minlashga ham sezilarli hissa qo‘shishi kutilmoqda.

Yashil iqtisod (Green Economy) – bu iqtisodiy faoliyatning ekologik toza, ijtimoiy adolatli va barqaror rivojlanishga qaratilgan shaklidir. Ushbu model energiya tejash, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, suv va havo sifatini yaxshilash kabi maqsadlarni o‘z ichiga oladi.Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin asosan siyosiy termin sifatida foydalaniladi[1][2]. UNEP

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024



VOLUME-5, ISSUE-6

2011-yilgi Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, „iqtisodiyot yashil bo'lishi uchun nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi ham kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi"



Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat – bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash (qarang: „Ekotizimlar va bioxilma-xillik iqtisodiyoti" va „Tabiiy kapital banki") va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to'liq xarajatlarni hisobga olish rejimi. aktivga zarar yetkazgan yoki e'tiborsiz qoldiradigan tashkilotga ishonchli tarzda qaytariladi va uning majburiyatlari sifatida hisobga olinadi.[4]

Yashil stiker va ekologik belgi amaliyoti iste'molchilar oldida atrof-muhitga do'stona munosabat va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida paydo bo'ldi. Ko'pgina sanoat tarmoqlari globallashayotgan iqtisodiyotda yashillashtirish amaliyotini targ'ib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qila boshlaydi. Barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan bu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaruvchi odamlarga zarar yetkazmasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalardir. Ushbu standartlar soni yaqinda o'sib bordi va endi ular yangi, yanada yashil iqtisodiyotni qurishda yordam berishi mumkin. Ular o'rmon xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati yoki baliqchilik kabi iqtisodiy sohalarga e'tibor qaratadi; suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish yoki issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish kabi ekologik omillarga e'tibor qaratish; xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qo'llab-quvvatlash; va ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan qismlaridir.Mamlakatda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 8-9-iyul kunlari Toshkent shahrida "yashil" iqtisodiyot bo'yicha normativ-huquqiy bazani va siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion "yashil" investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining "yashil" iqtisodiyot bo'yicha mintaqaviy vazirliklar konferensiyasi o'tkazildi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil iqlimning o'zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024



ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta’minlashda o‘zaro bog‘liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Xususan, jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga bo‘lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof muhitga salbiy antropogen ta’sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda.

Iqtisodiyot energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda.

Uzoq muddatli strategiyaning mavjud emasligi “yashil” texnologiyalarni joriy etish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rishni ta’minlashga imkon bermayapti.

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, shuningdek, Parij bitimi (Parij, 2015-yil 12-dekabr) majburiyatlari bajarilishini va O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishini ta’minlash maqsadida:

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishining asosiy vazifalari etib belgilansin:

texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish;

davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

“yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Yashil iqtisodning asosiy tamoyillari:

1. Resurslardan oqilona foydalanish – yer, suv, energiya kabi tabiiy boyliklar tejab-tergab ishlatiladi.

2. Qayta tiklanadigan energiyaga o‘tish – quyosh, shamol, suv, biogaz kabi energiya manbalaridan foydalaniladi.

3. Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash – chiqindilar saralanadi, qayta ishlanadi yoki energiya manbai sifatida ishlatiladi.

4. Ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash – ishlab chiqarish va transport sohalarida atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan usullar tatbiq etiladi.

5. Yashil ish o‘rinlari yaratish – ekologik xavfsiz sohalarda yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Yashil iqtisodning afzalliklari:

Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash – yashil iqtisod issiqxona gazlarini kamaytirishga yordam beradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Sog‘lom muhit yaratadi – havoning, suvning, tuproqning ifloslanishini kamaytiradi.

Barqaror iqtisodiy o‘sish – ekologiyaga zarar bermagan holda ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshiradi.

Ijtimoiy barqarorlik – yangi ish o‘rinlari yaratiladi, kambag‘allik kamayadi.

Yashil iqtisodning global miqyosdagi ahamiyati:

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlar yashil iqtisod tamoyillarini o‘z siyosatlariga integratsiya qilmoqda. BMT, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Janubiy Koreya, Kanada va boshqa davlatlar yashil energetikaga katta sarmoya kiritmoqda. Parij iqlim kelishuvi, “Yashil kelishuv” (Green Deal) kabi global tashabbuslar aynan yashil iqtisod g‘oyasiga asoslangan.

O‘zbekistonda yashil iqtisodga o‘tish:

O‘zbekiston ham bu sohada faol islohotlarni amalga oshirmoqda:

Quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda.

“Yashil maktab”, “Yashil bog‘cha”, “Yashil shahar” kabi loyihalar yo‘lga qo‘yilgan.

Elektr transport vositalari ishlab chiqarilishi kengaymoqda.

2023–2030 yillar uchun mo‘ljallangan Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan.

Qishloq xo‘jaligida organik dehqonchilik va suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilmoqda.

**Xulosa:**

Yashil iqtisod – bu faqat ekologiya haqida emas, balki kelajak avlodlar uchun sog‘lom muhit va barqaror taraqqiyot haqida. Har bir fuqaro, tashkilot va davlat yashil iqtisod tamoyillariga amal qilish orqali sayyoramizni asrashda o‘z hissasini qo‘shishi mumkin. Bugungi kundagi harakatlarimiz – ertangi kunimiz taqdirini belgilaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. United Nations Environment Programme (UNEP). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. UNEP, 2011.

2. OECD. Green Growth and Sustainable Development. Organisation for Economic Co-operation and Development, 2020. www.oecd.org

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, PQ–4477-son, 2023-yil.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Yashil iqtisodiyot yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar, 2024.

5. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. World Bank Publications, 2012.

6. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) O‘zbekiston. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar, 2023.

7. Нормаматов Н.Д. Qulmamatova B.O. Hakimov F.A. Sharipova N.D ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА – ЭКОНОМИКА БУДУЩЕГО CERTIFICATE of publication DATA Dr. Rajeet Ojha Editor in chef 08.02.2025